

TIJORAT BANKLARNI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Tursunov Faridun Mustafoyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Bank ishi” kafedrası assistenti

tursunovfaridun4330@gmail.com

Nasrullayev Abdulaziz Alisher o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

abdurshs6@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kredit va kredit portfeli tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o‘rni, jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini ko‘rsatishda uchraydigan ba‘ze muammolar o‘rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba‘ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida kredit portfeli haqidagi barcha to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kredit, kredit portfeli, debitor, ssuda, korporativ mijoz, onlayn-banking, internet-banking, standart kreditlar, substandart kreditlar, qoniqarsiz kreditlar, shubhali kreditlar, umidsiz kreditlar, ekspress kreditlar, overdraft.

ABSTRACT: This article explores the concept of credit and loan portfolio, its role and role in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of the provision of credit services to individuals, some problems encountered in the provision of credit services to individuals, and some practical proposals and recommendations are made to solve these problems. In the practice of commercial banks of Uzbekistan, it was analyzed on the basis of all accumulated statistics about the credit portfolio.

Keywords: credit, loan portfolio, debitor, loan, corporate client, online banking, internet banking, standard loans, substandard loans, unsatisfactory loans, questionable loans, desperate loans, express loans, overdraft.

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasida banklarni kredit portfelini boshqarishning dolzarbligi kredit tizimini jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Jismoniy shaxslarni kreditlashni o‘rganishning asosiy mezon bank xizmatlarini yanada rivojlantirish muammolari va istiqbollarini o‘rganish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning evolyutsiyasini mamlakat pul aylanmasining tezlashtiruvchisi bo‘lgan innovatsion bank texnologiyalaridan samarali foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”¹ ishlab chiqildi. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha birqator maqsadli ko‘rsatkichlar rejalashtirildi. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizda samarali bank tizimi va uni faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda jismoniy shaxslarni kreditlashning roli katta[1].

Bank yaxshi kredit portfelini shakllantirish niyatida ekan, kreditlash jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi zarur bo‘ladi. Konkret banklarni kredit portfelini tarkibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bank

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

kredit portfelining tarkibini aniqlovchi muhim omillardan biri bu ayni bank xizmat ko'rsatadigan bozor sektorining xususiyatidir. Har bir bank o'z bozor segmenti mijozlarining qarz mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olishi kerak. Masalan, bank shahar chekkasidagi uylar va kichik do'konlarga ega, tumanda joylashgan bo'lsa, asosiy uy binolari garovi ostida, ipoteka krediti, avtomobil, uy jixozlari, umuman uy xujaligini yuritish uchun xarajatlarni qoplashga kredit beradi, aksincha katta shaharda ofislar, katta univermaglar, sanoat korxonalarini orasidagi banklar, odatda o'z kreditlarini asosan tijorat firmalariga tovar materiallar zahiralarni to'ldirishga, jihozlar sotib olishga va ish haqiga yo'naltiriladilar. Albatta, banklar kredit berayotganlarida o'zlarining xizmat ko'rsatayotgan xududlarga to'liq bog'liq bo'lmaydilar.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy va bank daromadini katta qismi ham aynan Shu kredit operatsiyalari orqali keladi. Shu sababli bank kredit portfelini qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. "Kredit portfeli" tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'riflanadi. Ayrim olimlar kredit portfeliga keng tushuncha berib, unga bankning barcha moliyaviy aktiv va passivlarini kiritsa, ayrimlari esa ushbu tushunchani bankning faqatgina ssuda operatsiyalari bilan bog'lashadi.

O.I.Lavrushinning fikricha "Tijorat banki kredit portfeli o'zida ssuda ko'rinishidagi barcha bank aktivlari - ro'yhatga olingan veksellar, banklararo kreditlar va depozitlar hamda boshqa kredit ko'rinishidagi talablarni ma'lum mezonlar asosida sifat guruhlari bo'yicha tasniflarini mujassamlashtiradi"[2].

Sh.Z. Abdullaeva "Bank risklari va kreditlash" nomli kitobida kredit portfelini kengroq ilmiy asoslab bergan. Unda kredit portfelining mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inobatga olinishi zarurligi aytilgan:

- kreditlar bo'yicha risk darajasi;
- kredit berish ob'ektlari;
- kreditdan foydalanish muddati;
- kreditning hajmi va ta'minlaganligi;
- mijozning moliyaviy holati, mulk shakli va boshqalar[3].

Jarkovskaya E.P. fikricha "Mijozlarga kredit berishning eng maqbul variantini taklif qilish uchun bank tashkiloti qarz oluvchidan uning xizmatiga o'tishni talab qiladigan holatlar tez-tez uchraydi. Shuning uchun kredit olish uchun bankingizga murojaat qilish eng yaxshi taklifga aylanadi"[4].

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda kredit portfeliga muddati o'tgan kreditlar ham, shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar ham, sud jarayonidagi kreditlar ham kiradi. Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi deb hisoblaymiz.

NATIJALAR

Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to'g'ri va sifatli olib borishi zarur. Ushbu tamoyillar asosida kredit olmoqchi bo'lgan mijozlarga kredit paketi tayyorlanadi va kredit olish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi. Yaxlit olib qaralganda, kredit siyosati tijorat banking yagona kreditlash tizimini vujudga keltiradi desak xato bo'lmaydi. Chunki bu siyosat bank o'sgan sari uni yangidan tashkil etiladigan bo'linma va filiallariga bank faoliyatini, kredit vakolatlarini, burchlarini taqsimotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aniq bir siyosatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan kredit siyosati bank krediti madaniyatini umumiy tarakkiyotini o'zagini ko'rsatadi.

Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- kreditning muddatliligi;
- kreditning qaytarilishligi;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kreditning to'lovliligi;
- kreditning maqsadliligi;
- kreditning samaradorligi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kredit portfelini mijozlarni tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilish bo'yicha me'yoriy mezon qilib 25% olingan. Ya'ni, tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to'planib qolishi mumkin emas.

Respublikamizning ayrim yirik banklarida ushbu ko'rsatkichning darajasi 50 foizdan yuqoridir. Xalqaro bank amaliyotida kredit portfelini diversifikatsiya qilishni asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilardan foydalanilmoqda:

- bank kredit qo'yilmalarini iqtisodiyotni turli tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiyalash;
- bank kredit qo'yilmalarini mijozlar kesimida diversifikatsiyalash.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- diversifikatsiyalash usuli;
- kreditlarni restruktizatsiyalash usuli;
- zahiralar shakllantirish usuli;
- muddati o'tgan kreditlar va foizlarni balansdan chiqarish usuli.

Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori riskli bo'lib boradi. Bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo'li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog'liqdir.

Samarali kredit portfelini tarkib toptirishda tijorat banki resurslarni joylashtirish sohasidagi uchta muhim yo'nalishning oqilona nisbatiga erishishga harakat qilishi lozim:

1. Investirlarni qimmatli qog'ozlarga mablag' kiritishini ta'minlash resurslarni oqilona joylashtirishning asosiy yo'nalishi bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
2. Resurs joylashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarni kreditlashdan iborat. Chunki kreditlashning ushbu yo'nalishi nafaqat riskni diversifikatsiya qilish, balki yaxshi daromad ko'rish imkoniyatini ham beradi.
3. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalarini bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish orqali yuqori dividendli daromadlar olish va ushbu korxonalarini boshqarishda ishtirok etish.

Banklar o'z faoliyatini takomillashtirish, xususan, kredit portfelini sog'lomlashtirish maqsadida mijozlarning iste'mol va boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bank depozitlari hamda sug'urta va kredit depozitlarining mushtarakligini ta'minlovchi yangi moliyaviy mahsulotlarni taqdim etish orqali aholining jamg'arish va investitsion faolligini rag'batlantirish asosida jismoniy shaxslar bilan ishlarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini qarz majburiyatlarini emissiya qilish va bank sertifikatlarini chiqarish yo'li orqali jalb etish amaliyotini keng joriy etilmoqda. Bunday amaliyotdan maqsad ushbu resurs turining bank tomonidan jalb qilingan jami mablag'lardagi ulushini oshirishdir. Bankning moliyaviy bozordagi mavqei uning kredit portfelini shakllantirish va uni boshqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA:Bank tashkilotlari doimiy mijozlarga sodiqliklarini bildiradilar, chunki ular o'zlarining moliyaviy obro'si va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishadi. Banklar ba'zi korxonalariga maqsadli dasturlardan foydalanishni taklif qiladilar, ular bo'yicha qarz mablag'lari uskunalar sotib olishga, qimmat elementlarni sotib olishga sarflanishi mumkin, ular ko'pincha garov sifatida ishlaydi. Tijorat bankining kredit portfeli deganda turli xil kredit risklarga asoslangan muayyan me'zonlarga qarab turkumlangan risklar miqyosidagi bank talablarining yig'indisi tuShuniladi. Kredit portfelini to'g'ri shakllantirish tijorat bankining samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishining asosiy mezonini hisoblanar ekan, har qanday tijorat banki kredit portfelining sifatli bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi.

Tijorat banklari kredit portfelining sifati va shakllanishi uning tarkibiy qismiga bevosita bog'liqdir. Kredit portfelini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, o'zida nafaqat kredit siyosati va uning strategiyasi, balki nazorat tizimini yo'lga qo'yish jarayonlarini mujasmlashtiradi. Shu bilan birga, kredit portfelini shakllantirish jarayoni dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy ravishda harakatdadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.
2. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.
3. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.-T.: Moliya, 2002y - 304 b. 45-46-betlar.
4. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
5. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. 2023-yil. 6-12 betlar.
6. Tursunov Faridun Mustafoevich. O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlari va ularning rivojlantirish ahamiyati. SCHOLAR, 1(34), 232-238 betlar. 2023 y.
7. Каримова А.М., Махсудов О.Ш. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт журнали,2023-йил, октябрь,10-сон, (79-83 бетлар).
8. Ниязов З. Д., Махсудов О.Ш. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Иқтисодиёт,молия ва инновациялар халқаро илмий журнали,декабрь 29, 2023 1(4) сон, (47-55 бетлар).